



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



2. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. “Kitob al-Jamohir ri-Ma’rirat al-Javohir” (Mineralogiya) kitobidan. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 12
3. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. “Kitob al-Jamohir ri-Ma’rirat al-Javohir” (Mineralogiya) kitobidan. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 8.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING TA’LIM-TARBIYASIDA OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING ROLI

Mo‘minova Dildora O‘rinbayevna
UrDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim
metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bolani jismonan, ma’nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun xar bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarning ta’lim tarbiyasida oila va bog‘chalarning roli va vazifalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, farzand, alohida yordamga muxtoj bolalar, ta’lim, tarbiya, hamkorlik, inklyuziv.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bular esa hamisha bolalar ta’lim-tarbiyasi oldidagi dolzarb yechimtalab muammolardan biridir [1,3b].

Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning takdiri uchun yuksak ma’suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan

ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma’naviy tarbiyani bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analarimizni o‘rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o‘rni bor. Oila davrasida qo‘shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda

gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolaning estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bu masala bolalarni tarbiyalashda davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining qo'yilishiga kompleks yondashishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq [2,95b].

Maktabgacha ta'lim yoshida o'quv faolyatiga doir shart-sharoitlar tarkib toptiriladi, uning alohida unsurlari shakllantiriladi. Kichik maktab yoshida mashg'ulotlar jarayonida bolalarda o'z faoliyatini tashkil etish maqsadini shakllantirish (ikki yoshdan uch yoshgacha), turli faoliyat usullarini o'zlashtirishga o'rgatish (uch yoshdan to'rt yoshgacha) zarur. To'rt yoshdan boshlab bola natijaga qarab aniq yo'nalganlikni egallaydi. Pedagog bolalarni tinglash, tushunish, topshiriqni bajarish, bir-biriga halaqit bermaslikga o'rgatadi, mashg'ulotlar mazmuniga qiziqishni qo'llab- quvvatlaydi, faollik va intilishni rag'batlaydi [3,255b].

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga olib keladi. Biz yashayotgan jamiyatda biror bir bola e'tibordan chetda qolmaydi, bir bolaga yetti mahalla ota-onadir degan fikr buning isbotidir. Alohida e'tiborga muxtoj bolalar sirasiga nafaqat rivojlanishida nuhsoni bor bolalar, balki noto'liq oilada va oilaviy sharoiti talab darjasida bo'lmagan bolalar kiradi. Bu bolalar jamiyatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanadi, ularga ma'naviy, iqtisodiy – ijtimoiy, psixologik - pedagogik yordam ko'rsatiladi. Ularni manan yetuk shaxs barkamol avlod bo'lib, kelajakda o'z oilasi uchun va farzandlari uchun namunali inson bo'lishga ko'maklashish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasi alohida yordamga muhtoj bolalarning jamiyat faol integratsiyalashuvi va individdan boshqa shaxslar bilan teng maqomga ko'tarilishi uchun muhim omillardan biridir. Bugungi kunga kelib jamiyatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarga nisbatan ijtimoiy yondashuvning o'rnini olib borilayotgan turli targ'ibot-tashviqot tadbirlari natijasida asta – sekinlik bilan bo'lsa-da, mustahkamlanib bormoqda. Lekin ularning bog'chada tarbiyalanishi, umumta'lim muassasalarida o'qishi bilan bog'liq huquq va ehtiyojlari to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlar (“ular o'zlarini boshqara olishmaydi”, “o'zgalar yordamiga muhtoj bolishadi”, “ularning ruhiyati o'zgaruvchan» va boshqalar) ham uchrab turishidan ko'z yumib bo'lmaydi. O'z navbatida mazkur toifadagi bolalar tarbiyalanayotgan maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilarning barchasi ham inklyuziv ta'lim bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega deyish, biroz mushkul. Bu borada ham bugungi kunda hukumatimiz tomonidan zarur ishlar olib borilmoqda [4, 2b].

Alohida yordamga muhtoj bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga tayyorlashning tizimli yondashuv modeliga ko'ra, inklyuziv ta'lim mikrotizimdan keyingi mezotizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlardan biridir. Lekin yuqorida keltirilgan qator omillar inklyuziv ta'limning alohida yordamga muhtoj bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga tayyorlab borishda bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy ijtimoiy institutlardan biri sifatidagi o'rnini va ahamiyatini yanada oshiradi.

Inklyuziv ta'lim doirasida yaratilgan dasturlar amalga oshiriladigan tadbirlar shakli va mazmunini belgilashda ularni o'quv jarayonida va darsdan tashqari paytlarda amalga oshirilishida o'zaro muvofiqligiga alohida ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Ya'ni, yuqoridagi ta'lim yo'nalishida beriladigan bilimlar va ko'nikmalar nazariy jihatdan o'quv fanlari mazmuniga singdirilishi bilan bir qatorda amaliy jihatdan darsdan tashqari tadbirlarda mustahkamlanib borilishi zarur [5, 12b].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya sohasida alohida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanib kelgan. Shu bois ham alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'limiga inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Chunki, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huquqlarini ta'minlaydi, kelajakda o'z hayot yo'llarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tosheva Nurzoda Toshtemirona, Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. [Matn]: darslik / N.T. Tosheva / - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022. -396 b.
2. Asqarova Dilorom Qurbonovna. Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent 2020. 139 b.
3. Esonova M.A. Maktabgacha pedagogika/ OTMning bakalavriyat yo'nalishi talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: “nashriyot”, 2022/. 296 b.